

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILANING ROLI

Begaliyeva Muhayyo Shamsiddinovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish

metodikasi yo'nalishi (ma'naviyat asoslari)

2-kurs magistranti

E-mail: begaliyevamuhayyo847@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-8164-674X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasining nazariy asoslari hamda oilaning shaxs kamolotidagi hal qiluvchi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida barkamol shaxsni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy, jismoniy va intellektual tarbiyaning o'zaro uyg'unligi yoritilgan. Shuningdek, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, ota-onaning mas'uliyati hamda zamonaviy globallashuv sharoitida oilaviy tarbiyada yuzaga kelayotgan muammolar ochib berilgan. Maqolada barkamol avlod tarbiyasini samarali tashkil etishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: Barkamol avlod, oila tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, oilaviy muhit, ota-ona mas'uliyati, milliy qadriyatlar, shaxs kamoloti.

Globallashuv jadallashib borayotgan bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida barcha jamiyatlarni qamrab olmoqda. Barkamol avlod tushunchasi shaxsning nafaqat jismonan sog'lom bo'lishini, balki uning ma'naviy yetukligi, axloqiy pokligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijtimoiy faolligini ham o'z ichiga oladi. Bunday insonni voyaga yetkazishda oilaning o'rni nihoyatda ahamiyatli, u shaxs kamolotining poydevori hisoblanadi. Zero, farzandning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari hamda hayotiy qarashlari eng avvalo oilaviy muhit ta'sirida shakllanishi barchaga ma'lum. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, oilaviy muhit shaxs ma'naviy kamolotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, oilaning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni, mas'uliyati va ta'sir doirasini ilmiy asosda tadqiq etish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois barkamol shaxsni shakllantirish uzluksiz va murakkab jarayon bo'lib, u inson hayotining ilk davrlaridan boshlanadi.

Pedagogik adabiyotlarda barkamol avlod tarbiyasi shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Xususan, OTMlar uchun mo'ljallangan pedagogika darsliklarida barkamol shaxs "jamiyat talablariga mos, ijtimoiy mas'uliyatni his etadigan, bilimli va ma'naviy yetuk inson" sifatida ta'riflanadi.[1] Bu esa tarbiyaning faqat ta'lim bilan cheklanmasdan, shaxs ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Barkamol shaxsni shakllantirish jarayoni uzluksiz bo'lib, u oilada boshlanib, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitda davom etadi. Ayniqsa, tarbiya jarayonining ilk bosqichlarida berilgan ta'sirlar shaxsning butun hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. I.A. Karimov bu borada shunday ta'kidlaydi: *"Insonning qanday shaxs bo'lib shakllanishi, avvalo, oilada olgan tarbiyasiga bog'liq"*[2]

Shu nuqtayi nazardan, barkamol avlod tarbiyasining nazariy asoslari pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Ushbu fanlar shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda tahlil qilib, tarbiya jarayonining samarali yo'llarini belgilab beradi. Ayniqsa, bolaning ilk yosh davrlarida berilgan ma'naviy va axloqiy tarbiya uning kelajakdagi xulq-atvori, ijtimoiy faolligi hamda hayotiy pozitsiyasini belgilab berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila barkamol avlod tarbiyasining eng muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi, dunyoqarashining shakllanishi va axloqiy me'yorlarni anglash jarayoni aynan oilada boshlanadi. Bola atrof-muhitni, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, xulq-atvor qoidalarini birinchi navbatda ota-onasi va yaqinlari misolida o'zlashtiradi.

O. Musurmonova o'zining "Oila pedagogikasi" asarida oilani shaxs tarbiyasining poydevori sifatida baholab, shunday yozadi: *"Oiladagi ma'naviy muhit farzand tarbiyasining sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi"*[3] Ushbu fikr oilaviy muhitning sog'lom bo'lishi barkamol shaxs tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiya jarayonida alohida o'rin tutadi. Ularning muomala madaniyati, o'zaro hurmati, mehnatsevarligi va mas'uliyat hissi farzand ongida muhim axloqiy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Aksincha, oiladagi nizolar, befarqlik va nosog'lom munosabatlar bolaning ruhiy holati va xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, oilada milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning singdirilishi barkamol avlod tarbiyasining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev bu borada: *"Oila — milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va yosh avlodga yetkazishning eng muhim maskanidir"*, deya ta'kidlaydi[4] Bu fikr oilaning nafaqat tarbiyaviy, balki ma'naviy-madaniy vazifasini ham yaqqol namoyon etadi. Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida barkamol avlod tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar tobora kengayib bormoqda. Axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat yoshlar dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli zamonaviy oilalarda tarbiya jarayoniga yanada mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Zamonaviy oilalarda uchrayotgan muammolar qatoriga ota-onaning bandligi, farzand tarbiyasiga yetarli vaqt ajratilmasligi hamda axborot oqimining nazoratsizligi kiradi. Pedagogika darsliklarida bu holat yoshlarning ma'naviy bo'shlig'iga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi.[5] Shu bois oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, ota-onalarning pedagogik bilim va madaniyatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitda barkamol avlod tarbiyasini samarali tashkil etish uchun oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan oila ushbu jarayonning markazida turib, shaxs kamolotining mustahkam poydevorini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, barkamol avlodni tarbiyalash jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Barkamol shaxsni shakllantirish jarayoni murakkab va uzluksiz bo'lib, u shaxsning jismoniy, ma'naviy, axloqiy va intellektual kamolotini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu jarayonda tarbiyaning o'rni beqiyos bo'lib, u shaxs dunyoqarashi va ijtimoiy faolligining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida barkamol avlod tarbiyasining nazariy asoslari pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, bolaning ilk yosh davrlarida berilgan tarbiya uning kelgusidagi hayot yo'lini, axloqiy

qarashlarini va jamiyatdagi o'rnini belgilab berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihat pedagog olimlar tomonidan ham alohida ta'kidlangan bo'lib, barkamol shaxs tarbiyasida uzluksizlik tamoyili muhim hisoblanadi. Shuningdek, oilaning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni tahlil qilinib, oila shaxs tarbiyasining asosiy va hal qiluvchi bo'g'ini ekanligi asoslab berildi. Oiladagi sog'lom ma'naviy muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi, milliy urf-odat va qadriyatlarning singdirilishi farzanda ijobiy axloqiy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilishi aniqlandi. O. Musurmonovanning ta'kidlashicha, oilaviy tarbiya shaxs kamolotining mustahkam poydevorini yaratadi.[6]

Zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida oilaviy tarbiya jarayonida muayyan muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish ota-onalardan yuqori pedagogik madaniyat va mas'uliyatni talab etadi. Shu bois barkamol avlod tarbiyasini samarali tashkil etishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'zaro hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, oila jamiyatning tayanchi bo'lib, yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Umuman olganda, barkamol avlod tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos bo'lib, ushbu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Musurmonova O.** Oila pedagogikasi : darslik – Toshkent : **Fan va texnologiya**, 2020. – **32-b**
2. **Karimov I. A.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent : **Ma'naviyat**, 2008. – **54-b**
3. **Mirziyoyev Sh. M.** Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz : nutqlar va ma'ruzalar. – Toshkent : **O'zbekiston**, 2019–**118-b**.
4. **Qosimov B., Saidahmedov N., Ochilov A.** Pedagogika : oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent : **Fan va texnologiya**, 2019. – **432 b.45-b.97-b**